

Samarqand viloyatida bajarilgan qurilish ishlari


2025-yil yanvar-aprel oylari uchun

- I. Jami bajarilgan qurilish ishlari
- II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari
- III. Qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti
- IV. Qurilish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Jami bajarilgan qurilish ishlari

2025- yilning yanvar-aprel oylarida, Samarqand viloyatida jami 4 028,3 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 106,8 % ni tashkil etdi.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi



Hududlar kesimida bajarilgan qurilish ishlari hajmi

	Hajm mlrd so'm	O'sish sur'ati, % da
Samarqand viloyati	4 028,3	108,6
<i>shaharlar</i>		
Samarqand sh.	719,7	116,0
Kattaqo'rg'on sh.	62,9	109,8
<i>tumanlar</i>		
Oqdaryo	268,6	108,8
Bulung'ur	129,1	102,5
Jomboy	170,1	110,3
Ishtixon	149,4	107,1
Kattaqo'rg'on	118,7	105,2
Qo'shrabot	110,9	155,2
Narpay	84,1	110,2
Payariq	323,4	108,5
Pastdarg'om	225,7	107,5
Paxtachi	88,5	104,9
Samarqand	241,7	104,8
Nurobod	42,3	93,2
Urgut	166,2	101,3
Toyloq	283,5	81,3
Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmni qo'shgan holda.	843,5	116,7

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)


[Qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2025-yilning yanvar-aprel oylarida Samarqand viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 43,3 % ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 129,8 % ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 52,8 % ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 162,6 % ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 3,9 % ulushni va 2024-yilning mos davriga nisbatan 107,2 % ni tashkil etdi.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari o'sish sur'ati va hajmi



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxona turlari kesimida qurilish ishlari

	Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
Yirik qurilish tashkilotlari hajmi, mlrd so'm	89,9	388,2	13,6
<i>o'sish sur'ati, % da</i>	<i>100,0</i>	<i>4,3 m</i>	<i>2,1 m</i>
Kichik korxona va mikrofirmalar hajmi, mlrd so'm	818,7	1 738,5	141,7
<i>o'sish sur'ati, % da</i>	<i>109,0</i>	<i>2,3 m</i>	<i>102,6</i>
Norasmiy sektor hajmi, mlrd so'm	837,7	-	-
<i>o'sish sur'ati, % da</i>	<i>115,0</i>	-	-

III. Qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2025-yilning yanvar-aprel oyida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 491,7 mlrd so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2024-yilning mos davriga nisbatan 85,1 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 12,2 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 67,0 % i to'g'ri kelib, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2024-yilning mos davriga nisbatan 112,4 % ni tashkil etgan holda 2 698,8 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 20,8 % ni yoki 837,8 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 115,0 % ni tashkil etdi.

Korxona turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari



Hududlar kesimida korxona turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari

	Hajm mlrd so'm			O'sish sur'ati, % da		
	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor
Samarqand viloyati	491,7	2 698,8	837,8	85,1	112,4	115,0
<i>shaharlar</i>						
Samarqand sh.	44,7	592,2	82,8	92,3	108,3	367,0
Kattaqo'rg'on sh.		48,1	14,8	0,0	112,6	105,1
<i>tumanlar</i>						
Oqdaryo	14,3	231,0	23,3	65,9	112,3	119,8
Bulung'ur	2,9	104,0	22,2	16,8	112,9	136,7
Jomboy	11,7	137,5	20,9	354,8	101,8	134,0
Ishtixon	8,5	122,1	18,8	325,7	112,7	64,2
Kattaqo'rg'on	4,2	100,4	14,1	143,7	107,5	84,4
Qo'shrabot	50,5	50,5	9,9	417,0	102,6	95,9
Narpay	1,8	56,8	25,5	98,1	102,1	137,1
Payariq	11,1	290,2	22,1	58,7	114,7	83,8
Pastdarg'om	102,2	102,7	20,8	89,0	158,9	66,8
Paxtachi	2,4	70,5	15,6	111,8	104,7	104,9
Samarqand	35,1	184,4	22,2	106,8	104,0	108,5
Nurobod	3,1	23,1	16,1	108,6	119,4	68,4
Urgut	2,2	145,7	18,3	74,9	108,6	66,7
Toyloq	107,8	158,3	17,4	45,9	158,8	124,8
Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmni qo'shgan holda.	89,2	281,3	473,0	154,1	109,6	115,9

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Qo'shrabot tumanida (2024-yilning mos davriga nisbatan 4,2 m.), Jomboy tumani (3,5 m.) va Ishtixon tumanida (3,2 m.) qayd etildi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Pastdarg'om tumanida (2024-yilning mos davriga nisbatan 158,9 %), Toyloq tumanida (158,8 %) va Nurobod tumanida (119, %) kuzatildi.

IV. Qurilish ishlari uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlarining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda, to'lov muddatidan qat'i nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- a) qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);
- b) kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;
- d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi O'zbekiston Respublikasi Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari statistika hisobotlari;
- e) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuv ma'lumotlari;
- f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.

Tayyorlash uchun mas'ul:

Investitsiyalar va qurilish
statistikasi boshqarmasi

Ijrochi:

L. Haitov
66 235-60-82 (3020)

Manzil:

